

TIBBIYOT LEKSIKASIDA METAFORIK BIRLIKLAR

Shavkatova Shaxloxon Ikromjon Qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

2-bosqich talabasi

Guli Toirova

Ilmiy rahbar:f.f.d., prof.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida ishlatiladigan kasallik nomlarining ko'chma ma'nolari, insonlarning fe'l-atvoriga ishora qilishi, ushbu ko'chma ma'nolarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til, lug'at, nutq, konnotativ sema, funksional sema, denotativ sema, kasallik nomlari, polisemiya, insonlarning fe'l-atvori, hosila semema

Abstract: This article talks about the figurative meanings of the names of diseases used in the Uzbek language, referring to the character of people, and the factors that cause the emergence of these figurative meanings.

Key words: language, vocabulary, speech, connotative sema, functional sema, denotative sema, disease names, polysemy, human character, derived sema

Абстрактный: В данной статье используются переносные значения слов, обозначающих названия болезней, их влияние на поведение человека, идёт речь о причинах возникновения таких слов.

Ключевые слова: язык, словарь, речь коннотативная sema, деннотативная sema, названия заболеваний, полисемия, поведение людей, семема

KIRISH

Ko'chma ma'nolarni o'rganish leksikologiya bo'limining tadqiq manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbek tili leksikologiyasi xususida so'z ketganda, tabiiy, birinchi galda turkiy tillarni qiyosiy o'rganish metodiga asos solgan Mahmud Koshg'ariy hamda o'zbek va fors-tojik tillarini chog'ishtirish orqali chog'ishtirma tilshunoslikka salmoqli ulush qo'shgan Alisher Navoiy xizmatlarini e'tirof etish lozim. Yigirmanchi asr o'zbek leksikologiyasi o'zining ravnaqini A.K.Borovkov, Sh. Rahmatullayev, E.Fozilov, F.Abdullayev, O.Usmonov, E.Begmatov, H.Ne'matov, X.Doniyorov sizgari qator leksikologlar ishlarida topdi[3]

Leksikologiyada leksemaning tashqi va ichki jihati mavjud. Leksemaning tashqi qobig'i *nomema* deb ataladi va uning ichki mazmuniy tomoni *semema* deyiladi. Semema tarkibida sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funksional sema).

Leksema ko'chma ma'noda qo'llanar ekan, uning sememasi tarkibidagi atash semasi so'nib, nutqiy voqelikka mos ravishda ifoda va vazifa semasi kuchayadi. So'zlar o'z ma'nosida to'g'ridan to'g'ri ifoda etilganda fikr yondosh ma'nolarsiz, o'z holicha qabul

qilinadi. Ayni holat ko'chma ma'noli so'zlar asosida amalga oshirilsa, fikrning obrazlilik oshadi. Ko'chma ma'nolar bir necha yo'l bilan vujudga keladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi. Ko'chma ma'nolar to'g'ri, bosh ma'no asosida paydo bo'ladi. Shu jumladan, inson xarakter xususiyatlarini ko'chma ma'noda ifodalashning ham bir necha usullari mavjud. Ahamiyatli tomoni shundaki, o'zbek tilida inson xarakter xususiyatlarini aks ettirishda kasallik nomlaridan ham samarali foydalaniladi. Tibbiyot leksikasida metaforik birliklarga to'xtalishdan ilgari, „metafora nima?“ degan savolga aniq javob berishimiz shart. **Metafora** (gr.*metaphora*- ko'chirish)- nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishi.

Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagidan biri sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llaniladi[5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

„O'zbek tilining izohli lug'ati“da bir qator kasallik nomlari va ularning inson xarakter xususiyatlariga ishora qiluvchi ko'chma ma'nolari keltirib o'tilgan. Quyida „O'zbek tilining izohli lug'ati“da keltirib o'tilgan ko'chma ma'noga ega kasallik nomlari izohlarini ko'rib o'tamiz:

„CHIPQON“ 1. Tuk xaltachasi hamda unga bog'liq yog' bezi va to'qimalarning yiringli yallig'lanishi; yiringli katta chiqiq; xo'ppoz. „*Nasim polvonga chipqon chiqqani chin ekan, bu davrada olishmadi.*“ T.Murod.Qo'shiq. 2. Asabni buzadigan, keraksiz vaziyatda xalaqit beradigan odam ma'nosida ko'chma. „*Bu axmoq ham dard ustiga chipqon bo'ldi-ya*“ T.Murod.Yulduzlar mangu yonadi[9].

„SILLA“: sillasi qurimoq 1. Kuch-quvvati ketishi va nihoyatda charchash natijasida yuzaga keluvchi kasallik, tinka-madori qolmaslik. [*Ammatjonning*] *Sillasi quridimi, qorni ochdimi, kichkina ketmonni yelkasiga tashlab, kapa tomon yurdi. S.Siyoyev, Avaz. Bu yerlardan ertaga ham don olish kerakmi? Kim ekadi, kim o'radi, kim yanchadi? Sillasi qurigan ayollarmi, eti ustixoniga yopishgan bolalarmi?* T.Malik, Ajab dunyo; 2. Ko'chma ma'noda nochor ahvolga tushgan odam ma'nosida. *Mutribning hazilnamo baytida Avaz yo'qchilik, faqirlikdan sillasi qurigan, ammo ko'ngli qanoatga to'la nekin shoir qalbini ko'rgandek bo'ldi.* S.Siyoyev, Avaz[8].

„SIL“[tuberkulyoz] 1. Turli a'zolar, asosan, o'pkada o'ziga xos yallig'lanish bilan kechadigan surunkali yuqumli kasallik. *O'pka sili, suyak sili, Sil shifoxonasi.* 2. juda siqilgan, zerikib, qon bo'lib ketgan odam. [*Fotima o'z-o'ziga:*] *Hech bir kishi bilan so'zlashmasdan, sil bo'lishga yaqin keldim.* Hamza, Tuhmatchilar jazosi[8].

„KAR“[eshitmaydigan] 1. Eshitish qobiliyatini yo'qotgan, eshitmaydigan yoki yaxshi eshitmatdigan, shuningdek, eshitgan so'zining ma'nosini ajratish darajasi juda pasayib ketgan; garang, karquloq. *Ha, menga nima bo'пти, eshitmay qulog'im karmi?* Oydin, Hikoyalar 2. Ko'chma. Bosh qotgan, nima qilarini bilmay gangib qolgan.

Bolalarning javdiragan ko'zlari otada. Ota esa nima qilarini bilmay garang.
P.Tursun.O'qituvchi[9].

„DABBA” 1. Ichki a'zolarining o'zi joylashib turgan bo'shliqdan shu bo'shliq devori orqali tashqariga turtib chiqishi yoki pastga- moyakdan tushishidan iborat kasallik; churra. *Qorin dabbasi.* **2.**Ko'chma ma'noda. Sudralgan, yurishmay qolgan ish , kasod bo'lgan mol, dangasa ishyoqmas odam[7].

Ikkinchi ma'nosida so'zning ko'chma ma'nosi keltirilib o'tilgan va insonga nisbatan qo'llanganda , undagi dangasalik, ishyoqmaslik xususiyatlarini ifoda etishi ko'rsatilgan.

Yana bir nechta kasallik nomlarini jadvallarda ko'rib o'tamiz. Jadvallarda ko'rish orqali ularning ma'nolari yanada biz uchun oydinlashadi va tushunarli bo'ladi. Kasallik nomlarini ko'chma ma'noda qo'llaganda tinglovchi ongida yaqqol, bo'rttirilgan obraz gavdalanishi mumkin va bu nutqning ta'sirchanligini ham oshiradi. Metafora hodisasining kasallik nomlarida uchrashi va ularning inson xarakterini aks ettirishi qiziqarli va shu o'rindan murakkab lisoniy hodisa hisoblanadi.

KASALLIK NOMLARI	1.O'Z MA'NOSI	2.KO'CHMA MA'NOSI	3. YANA BIR BOSHQA YONDOSH MA'NOSI
MARAZ	Kasallik. Yiring olgan,fasod bog'lagan yara. Marazdir vujuding,fashistdir noming, kir yuqlari bilan sasigan joming. Uyg'un.	Ko'chma ma'noda badxulq kishilarga nisbatan haqoratomuz so'z sifatida ishlatiladi. Hasanning gapiga qotib-qotib kulgan ham shu maraz emasmidi?	Narsalarga nisbatan ko'chma ma'noda yomon ,yaramas ma'nosini beradi. Qo'shib yozish, ko'zbo'yamachilik degan maraz illat dehqonlarimiz sha'nida yaxshi bo'lmadi. „Mushtum”.
MOXOV	Kasallik. Butun organizmni, xususan, teri, nerv sistemasi hamda ichki a'zolari zararlaydigan surunkali kasallik. Xa, Botir aka, hozir odamlar moxovdan hazar qilgandek	Ko'chma ma'noda rasvo,yaramas, chatoq odam. Moxov odam ekan. S.Ahmad.Hikoyalar	1.Qarg'ishni ifodalaydi.Nega jim turibsizlar? Uringlar moxov bo'lgurni. 2.Yakka

	mendan qochishadi.S.Ahmad.Saylanma		moxov. Kishilaraga aralashmaydigan kishi
QUTURMOQ Q	Kasallik. Quturish kasalligiga yo'liqmoq.	Bosar-tusarini bilmay qolgan odamga nisbatan qo'llanadi.	Shiddat bilan yuz bermoq.Bo'ron quturmoqda

Jahon tilshunos olimlaridan Lakoff va Johnson metafora xususida fikr bildirar ekanlar, aslini olganda, metafora kundalik hayotda ko'p ishlatiladi, lekin tilshunoslik nuqtayi nazariga ko'ra bu „metafora” emas, balki „konseptual metafora”dir deb ta'kidladilar va ushbu nazariya asosida metafora „til” emas „konsept”ning nazariyasiga aylantirildi. Shuningdek, K.Nabeshima metaforani „borliqning aksi(xaritaga solish)” deb ta'rifladi[6].

XULOSA

Ushbu maqolada tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasini ko'rishimiz mumkin. Ushbu fanlarning integratsiyasi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- tibbiyotga oid terminologik tizimni tadqiq qilish;
- tibbiyot atamalarini xalq shevalaridagi so'zlar, sinonimlar, iboralar, va evfemizmlar bilan boyitish;
- tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarda o'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitish[7].

Ko'rinib turibdiki, tilshunoslik va tibbiyot sohalarining vakillari hamkorlikda bajarishlari mumkin bo'lgan ishlarning ko'lami keng va globallashuv sharoitida u yanada kengayib boradi. Nutqimizda inson xarakter xususiyatlarini anglatib keluvchi kasallik nomlari nutq ta'sirchanligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adilova Saodat Abdurahimovna.Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi(AQShdagi ayrim universitetlar misolida). Tadqiqot.uz.2021.Buxoro.-B.36-40
2. H.Ne'matov. O'zbek tili sistem leksikologiya asoslari.O'quv qo'llanma.-T: O'qituvchi,1995.-101 b
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Darslik.-T: Talqin,2005.-261 b
4. I.Yo'ldoshev. Tilshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma.-T:Iqtisod-moliya,2007.-190 b
5. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek tili.Darslik.-Buxoro:Durdona,2021.-455 b
6. U.Haydarov, G. Mo'minova.Kognitiv lingvistikada metafora masalalari va ularning yapon mumtoz mambalarida ifodalanishi. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy uslubiy jurnali.-B.59-61
- 7.O'zbek tilining izohli lug'ati. „D” harfi//“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,Toshkent.



8. O'zbek tilining izohli lug'ati. „M” harfi // “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. „K”, „S”, „Ch” harflari // “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent.

10. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering, 2019, 8(2 Special Issue 10), P. 352–355

11. Toirova G., Abdurahmonova N., Ismoilov A., Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing. // Proceedings - 7th International Conference on Computer Science and Engineering, UBMK 2022, 2022, P. 73–75

